

RESPUBLIKAMIZDA SOLIQLAR VA YIG'IMLARNI PROGNOZ QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Abduraxmanov Karomat Erkinovich
YSTI bo'lim boshlig'i o'rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar bo'yicha soliq salohiyatini hisoblash formulalari keltirilgan shuningdek soliq- siyosatini takomillashtirish, byudjetda xarajatlar ehtiyojlarini va tenglashtirish dasturlarining asosiy jihatlarini aniqlashda mavjud innovatsion usullar va uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishni takomillashtirish, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlashning keng ko'lamli usullarini joriy etish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik sub'ektlari, soliq salohiyati, normativ tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, reprezentativ soliq stavkasi, o'rtacha stavka soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Annotation: This article presents formulas for calculating the tax potential of economic sectors and regions, as well as a wide range of economic-mathematical modeling and forecasting in order to improve the tax policy, improve the development of existing innovative methods and methodological approaches in determining the main aspects of budget expenditures and equalization programs, and increase the efficiency of public finance management. Proposals for the introduction of large-scale methods are given.

Keywords: tax, budget policy, budget, tax administration, business entities, tax potential, normative analysis, positive analysis, tax burden, representative tax rate, average rate tax report, tax revenues, tax incentives, tax rate.

Kirish:

Davlat byudjeti tuzumidan va taraqqiyot darajasidan qat'iy nazar, davlat funksiyalarini bajarish uchun byudjet daromadlarining lozim darajada shakllantirish har bir davlat uchun zarur hisoblanadi. Bu vazifa soliq siyosatini to'g'ri yuritishda hamda byudjet defitsitini qoplash usullarini tanlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Garvord universiteti olimlaridan biri "Ayniqsa, soliq siyosati ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni ta'minlashda, davlatning boshqa instrumentlariga qaraganda samaraliroq hisoblanadi, chunki jamiyat a'zolarining daromadlarini qayta taqsimlash bilan uzviy bog'liq"[1]. Bu esa pandemiya sharoitida, aholini qo'shimcha ijtimoiy himoya qilish zarurati paydo bo'lgan vaqtda, iqtisodiy faollikning kamayishi, ta'dbirkorlik faoliyatini to'xtashi va boshqa omillar natijasida davlat byudjeti

daromadlarining kamayishi ko'p davlatlarda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda optimal yondashuv zarurligini taqozo etadi.

2. Adabiyotlar sharxi.

A.V. Buzgalinning qarashicha: soliq yuki - bu umumlashtiruvchi ko'rsatkich bo'lib, soliq yig'imlarining umumiy summasini jami milliy mahsulotga nisbati bilan aniqlanadi[2].

V.G. Panskov va V. Kinyazevning fikricha, mamlakat daromadida, soliq yukini aniqlashda to'langan soliqlar summasini yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga nisbati ko'rsatkichi qo'llaniladi[3].

Soliq-bojxona siyosatini yuritish metodologiyasi esa – soliq-bojxona siyosatini ishlab chiqish uchun zarur holatni tahlil qilish, yo'nalishlarni ishlab chiqish va asoslash, samaralarini va havf-xatarlarni baholash, davlat byudjeti daromadlari va soliq yukiga ta'sirini solishtirish va shu bilan bog'liq boshqa tadbirlar uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning alohida olingan nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar – A. Laffer, G. Miles, Ye. Bekker, Ye. Mal'ish, L. Kaplov, N. Ivanova, O. Lazurina, R. Roze, S. Kadomseva, S. Miller, S. Porsa, T. Gayer, U. Lott, X. Rozen va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan[4].

Ye. Bekker esa soliq to'lovchilar davlat byudjetiga soliq to'lamaslikka intilish sabablarini o'rgangan hamda soliqdan qochishga qarshi kurashish orqali davlat byudjeti daromadlarini oshirish yo'llarini ko'rsatib bergan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A. Vahobov, A. Jo'raev, A. Mamanazarov, B. Toshmurodova, Z. Srojiddinova, N. Qo'zieva, N. Haydarov, O. Iminov, T. Malikov, X. Kobulov, Sh. To'raev, Q. Yah'yoev va boshqalarning tadqiqotlarida davlat byudjeti daromadlarining tarkibi, ularni boshqarish, soliq islohotlarining alohida nazariy, amaliy va metodologik jihatlari tadqiq qilingan[5]. T. Malikov o'z asarlarida, davlat byudjeti daromadlarining salmoqli qismini tashkil qiladigan soliqlar va soliqqa tortishning nazariy asoslarini tadqiq qilgan.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada mantiqiy usul va modellashtirish usullari, tahlil va sintez, normativ yondashuv, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilgan.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Davlat soliq xizmati organlarida Davlat byudjetiga soliq tushumlarini prognozlashtirish metodikasi (keyingi o'rinlarda Metodika deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga soliq va yig'imlar tushumlari prognozini (xorijiy davlatlarning tamoyillari va amaliy tajribasini hisobga olgan holda) tayyorlash maqsadida ishlab chiqilgan, shuningdek davlat soliq siyosatini amalga oshirish doirasida davlat

byudjetiga soliqlar va yig'imglar tushumlarining prognoz ko'rsatkichlariga erishilishini so'zsiz ta'minlashga hamda soliq to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlar va yig'imglarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni ta'minlashga qaratilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning prognoz parametrlarini hisobga olgan holda, Davlat byudjetiga soliqlar va yig'imglar bo'yicha tushumlarni hisoblash O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat byudjetiga soliq tushumlarini prognozlashtirish bir necha hisoblash usullari yordamida amalga oshiriladi:

- hajm va qiymat ko'rsatkichlarining prognoz qiymatlari, tushumlar hajmi, stavkalar darajalari va boshqa ko'rsatkichlardan foydalanishga asoslangan **to'g'ridan – to'g'ri hisoblash**;

- **o'rtacha** – o'tgan davrda olingan yillik tushumlar hajmlarini o'rtacha hisoblash asosida amalga oshiriladigan hisob-kitob;

- **indeksatsiya** – iste'mol narxlari indeksi, inflyatsiya, deflyator va daromadlarning prognoz qilinayotgan turini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar yordamida hisoblash;

- **ekstrapolyatsiya** – o'tgan davrlarda tushumlarning o'zgarishi tendensiyalari to'g'risidagi mavjud ma'lumotlar asosida amalga oshiriladigan hisob-kitob;

Metodikada bayon etilgan boshqa usullar.

5. Tushumlarni (soliq salohiyatini) prognozlashtirishni baholash hisob-kitob usullari hisoblash uchun asos sifatida olingan bazaga qarab farqlanadi.

6. Reja davri uchun tushumlarning prognozlarini aniqlashda qonunchilik hujjatlarida joriy (o'tgan) yil uchun tushumlarning baholash asos qilib olinadi.

7. Reja davri uchun viloyatlar, shaharlar va tumanlarning soliq salohiyatini baholashni aniqlashda qonunchilik hujjatlarida joriy yil uchun soliq salohiyati asos qilib olinadi.

8. Tushumlarni (soliq salohiyatini) hisoblash Davlat byudjetiga soliq tushumlari turlari kesimida amalga oshiriladi.

9. Prognoz qilinayotgan davrda kutilayotgan soliq tushumlarini hisoblash uchun soliq statistikasining yig'ima ma'lumotlari (soliq bazasi, hisoblangan summalar (nachislenie), imtiyozlar va preferensiyalar, soliq tushumlari, soliqlar va yig'imglar bo'yicha qarzdorlik va boshqa ko'rsatkichlar), O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi hamda boshqa vazirlik va idoralarning tahliliy ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Byudjet daromadlarini prognozlashtirishda ekstrapolyatsiya usulidan foydalanish tartibi

Quyidagi hollarda daromadlar ekstrapolyatsiya usulida (o‘rtacha arifmetik, o‘rtacha tortilgan arifmetik, o‘rtacha xronologik, o‘rtacha geometrik, ...) prognozashtirilishi mumkin (bunda o‘tgan davrlar sonini belgilash mutaxassis tomonidan mustaqil belgilanadi):

a) kuzatishlar soni 100 dan ortiq, standart og‘ishi 20% dan katta bo‘lmagan davriy qatorga ega tushumlar tebranishlari katta bo‘lmagan daromad turlari;

b) hududlar bo‘yicha operativ prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilayotganida.

Ekstrapolyatsiya usuli qo‘llanilayotganida o‘tgan davr ko‘rsatkichlari solishtirma miqdorlarga o‘tkazilishi lozim.

Daromadlar yoki ularni bazalarini, statistik testlari (r^2 , $adj.r^2$, t-test, F-test, ...) natijalari qo‘llash mumkin bo‘lgan hollarda, regression modellardan (“casual relationship”, “time series”) foydalanilishi mumkin.

Daromadlar bazasini prognozashtirish tartibi

Daromadlar bazasi, shu jumladan uning komponentlari:

shu bazaning YaIM o‘shishiga nisbatan oldingi o‘rta muddatdagi elastikligi;

YaIMdagi ulushi saqlanib qolishi;

solliq-bojxona, fiskal siyosatning tadbirlari prognozi;

vazirlik, idoralarning ma’lumotlari;

bazaga ta’sir qiluvchi asosiy ko‘rsatkichlar prognozi kabi ko‘rsatkichlardan foydalangan holda aniqlanadi.

Xulosa va takliflar.

Davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy-matematik modellashtirish va bashorat qilish keng doiradagi ilmiy usullarini qo‘llashni takomillashtirish zarur.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Louis.Kaplow The theory of Taxation and Public Economics. New Jersey: Princeton University Press, 2008. -472p.

2.ВЫЗГАЛИН А.В. «Налоговая оптимизация: принципы, методы, рекомендации». -М.: 2002. S.54.

3.Panskov V., Кыныязев V. «Налоговые льготы и налогообложение». Учебник. -М.: MSFER. 2003.S.61.

4.Laffer, A., Seymour, J.P. The economics of the Tax revolt. – San Diego. Harcourt Brace Jovanovich, Inc, 1976, – 230p.; Myles, G.D. Public economics. – Cambridge University Press, 1995. – 538p.; Bekker Ye.G. Mikroekonomicheskie aspekty problemy ukloneniya ot nalogov. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. – M.: Finansovaya akademiya pri Pravitelstve RF, 2006. – 73s.; Малыш, Ye. V. Nalogi i nalogooblojenie : ucheb.metod. posobie. – Yekaterinburg. Izdvo Ural. unta, 2017. – 112s.; Kaplow, L. The theory of Taxation and Public Economics. – New Jersey. Princeton University Press, 2008. – 472p.; Ivanova

N.V. Razvitiye nauchnykh predstavleniy o nalogooblojenii: obshchie i chastnyye teorii nalogov. Internetjurnal «NAUKOVEDENIE», 2009, Vypusk №1 (oktyabr — dekabr) – <http://naukovedenie.ru>.; Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnoe posobie / Pod obshchey redaksiyey k.e.n., dotsenta Lazurinoy O.M. – Yaroslavl: MFYuA, 2014. – 220s.; Rose R. Maximizing Tax revenue while Minimizing Political Costs. Journal of Public Policy, 1985, Vol.5 No. 3, pp. 289-320.; Kadomseva S.V. Gosudarstvennyye finansy: Ucheb. posobie. – M.: INFRA-M, 2009. – 352s.; Lott, W.F., Miller S.M. Excise Tax Revenue Maximization. Southern Economic Journal, 1974, Vol.40 No. 4, – pp.657-664.; Porca, S. Important determinants of state tax revenue portfolios. Annual Conference on taxation and minutes of the Annual Meeting of the national Tax Association, 2002. Vol. 95, – pp. 416-426.; Rosen, H.S., Gayer, T. Public finance. – New York. McGraw-Hill Education, 2008. – 596p.

5. Vahobov A.V., Srojiddinova Z.X. O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti. T.: Iqtisod-moliya, 2001. – 174b.; Jo‘raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. – T.: Fan, 2004. – 224b.; Mamanazarov A.B. Mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish masalalari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –T.: BMA, 2002. – 22b.; Toshmurodova B.E. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. – 128b.; Haydarov N.X. Davlat byudjeti. - O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod va moliya». 2007, – 21b.; Iminov O.K., To‘raev Sh.Sh. Soliqqa tortishni tahlil etishning dolzarb masalalari. – Toshkent, “Akademiya», 2002. – 204b.; Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T.: Akademiya, 2002. – 279b.; Malikov T.S., Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va sanat nashriyoti, 2000. – 230b.; Kobulov X.A. Hududiy iqtisodiyot va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini oshirish yo‘nalishlari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati. –T.: BMA, 2006., –22b.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.